

SHIMOLIY XORAZM DOSTONLARI TILIDAGI LAKUNALAR TALQINI

Xolmuradova Jamila¹

Toshkent amaliy fanlar universiteti

KEYWORDS

Xorazm, folklor, doston, sheva, leksika, adabiy, badiiy, leksika, adabiy, til, stilistik, semantik, ma'no.

ABSTRACT

Maqolada Xorazm dostonlari leksikasidagi ayrim so'zlarning adabiy til va shevaga xos holatlardan semantik farqlanishi haqidagi mulohazalar atroflicha izohlanadi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15163956**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Odatda, dostonda kechgan voqea-hodisalar, ularda ishtirok etgan personajlar xatti-harakati, ularning munosabati, o'zaro suhbatlari, ular tushib qolgan sharoit va vaziyat tasviriga hamda bu tasvirlari tinglovchiga yetkazishga xizmat qiluvchi leksik birliklarni qo'llanishiga ko'ra dostonlar matnida adabiy tilda va shevalarda mavjud bo'lib, ma'noda farqlanuvchi (yoki ma'no doirasi kengaygan) so'zlar tartibida ham guruhlarga bo'lib o'rganishni taqozo qiladi. Leksik birliklarning bu ma'nolarini kelajakda tuziladigan izohli lug'atlarda ham keltirib o'tish maqsadga muvofiq bo'lur edi. Shunday so'zlardan biri adabiy tilda mavjud bo'lgan **toza** so'zidir. Bu so'z "O'zbek tilining izohli lug'ati" da tavsiflangan ozoda, pokiza, sof, asil, pok, juda ham, rosa, namunali ma'nolaridan tashqari chiroyli, go'zal, ixcham, yangi, oppoq, maftunkor ma'nolarini ifodalash uchun ham xizmat qiladi:

1) chiroyli, go'zal, ixcham, oppoq, maftunkor ma'nolari ustun: Ko'ro'glining eki ko'zi Qirmondalining oq bilakinda, **toza** bo'qoqinda (Xo'jyoz baxshi, Xirmondali, 16-bet). 2) chiroyli, go'zal, yangi ma'nolarida: Bog'bon bo'lib tersam **toza** gulingdan (Xo'jyoz baxshi, Xirmondali, 42-bet).

Shimoliy Xorazm shevalarida **toza** so'zi ko'p hollarda shaxsga nisbatan qo'llanilib, ijobiy xususiyatni belgilashga xizmat qiladi. Jumladan, beg'ubor, ochiqko'ngil, ishonchli sog'lom, pishiq, puxta, qing'ir yo'llarga yurmaydigan, harom-harish ishlardan uzoq yuruvchi kishi

¹ Toshkent amaliy fanlar universiteti

ma'nolarida ishlatiladi. Masalan,

- 1) beg'ubor, ochiqko'ngil: Nishetsada **toza** odam-do, hech yomon xiyolga bormiydi.
- 2) ishonchli pishiq, puxta: Unga ishonsa bo'ladi, **toza** odam.
- 3) pishiq, puxta, yaxshi: U **toza** ishliydi.
- 4) sog'lom, qing'ir yo'llarga yurmaydigan, harom-harish) ishlardan hazar qiladigan odam ma'nolarida: Ular suyagi **toza** odamlardan. Bunday misollarni mazkur shevada va dostonlarda ancha uchratish mumkin.

Shimoliy Xorazm dostonlarida ham, shevalarida ham, adabiy tilda ham mavjud bo'lib, ma'no jihatidan farq qiluvchi (yoki ma'no doirasi kengaygan) so'z (lakuna)larni ifodalagan ma'nolariga ko'ra turlicha mavzuiy guruhlariga bo'lib o'rganish lozim bo'ladi:

1. Predmet (narsa) nomlari: kavak - chuqurcha, bo'shliq, in, uya ma'nolaridan tashqari Shimoliy Xorazm dostonlarida xilvat joy ma'nolarida ham keladi: Go'ro'g'li haligi otining izini olib boravirdi, borip bir tog'ding **kavagina** kirdi (Xudirgan baxshi, Qirq minglar, 26-bet).

Kosa - piyoladan kattaroq idish: tarvuz yoki handalakning yarim, ba'zan chorak pallasi: bosh kosasi (anat)dan farqli mazkur dostonlar tilida va mahalliy shevada choy ichishda qo'llaniladigan idish - piyola manosida ishlatiladi. Beshisina besh **kosa** aroq sop berdi (Xudirgan baxshi, Qirq minglar, 4-bet).

«Xirmondali» dostonining Xo'jyoz baxshi variantida Go'ro'g'lining nomi Ko'ro'gli, Xirmondalining nomi esa Qirmondali tarzida qayd etilgan.

Nor - arabcha erkak tuya, badandagi tug'ma qizg'ish dog', ism, o't, olov, anor ma'nolaridan tashqari, katta, ulug', biron mashg'ulot va kasb-hunar egasi, boshliq, rahbar, xo'jayin, ko'pchilikni o'ziga ergashtira oluvchi kishi ma'nolarida keladi: 1) katta: G'irotda minganda **nor** ko'zim-maston (Xo'jyoz baxshi, Xirmondali. 16-bet). Maston ko'zim **nor** ochilur (Xudirgan baxshi, Qirq minglar,17-bet). 2) boshliq, rahbar, xo'jayin, ko'pchilikni o'ziga ergashtira oluvchi kishi: Avazjonim g'o'ch yigitlar **noridi** (Xudirgan baxshi, Qirq minglar,5-bet).

2. Mavhum nomlar: Dam(i) - 1) nafas, tin, so'lish, ishdan bo'sh vaqt, istirohat, orom, hordiq, to'plangan havo yoki gaz, taft, issiq, harorat, bug', hovur. 2) on, lahza, kez, payt, goh, goho. 3) ko'raga, o'choqqa havo yuboradigan garmonsimon asbob. 4) chet, qirg'oq. 5) asbobning o'tkir tomoni, tig'i ma'nolaridan boshqa changal, tuzoq, iskanja ma'nolari uchun ham ishlatiladi: Tushdim Loyxo'rding **damina** (Xudirgan baxshi, Qirq minglar, 24-bet.). Bu poshsho oytdi: "Ay, Arslonboy, bu qizing yeddi yoshinnan o'n sakkiz yoshina chiqqanchalli **damina** tushgan uch yuz oltmish polvon yigitlardi o'ltirdi. O'zi qoon, o'zi poshsho bo'ldi" (Xo'jyoz baxshi, Xirmondali, 56-57-betlar).

Nishon(a) - belgi, alomat, iz, asar, mo'ljal, shaxs ismi, mevali daraxtning ilk mevasi va yana dalil, isbot ma'nolari ham mavjud: 1) Qirilgan bo'lsa unnan **nishona** yo'qma, dedi (Xudirgan baxshi, Qirq minglar, 14-bet.). 2) **Nishonasina** quloq-murnini keltirdim,- dedi (Xudirgan baxshi, Qirq minglar,14-bet.).

3. Belgi-xususiyat ifodalovchi so'zlar -yomon - sifati, navi past, yaxshi emas, axloqi, fe'li atvori buzuq, yaramas, noxush, yoqimsiz, ko'ngilsiz,zararli, razil, og'ir, xatarli, qattiq, past baxo, adabsiz gap kabilardan tashqari juda, rosa, nihoyatda ma'nosida ham keladi:

Ko'ro'g'lining bu so'zina parizotting yomon qari keldi (Xo'jyoz baxshi, Xirmondali, 21-bet).

Ojiz - jismoniy jihatdan kuchsiz, zaif, bo'sh, bequvvat, notavon, noiloj, ko'rish qobiliyatini batamom yo'qotgan ko'r singarilardan tashqari past ma'nosida: Kun gunorta bo'lgan vaxtda Go'ro'g'li Loyxo'rg'a **ojiz** keldi (Xudirgan baxshi, Qirq minglar, 23-bet). Karam sulton o'zining **ojiz** kegani Oshiq Oydin pirga ma'lum ekanini payqadi (Xo'jyoz baxshi, Xirmondali, 44-bet).

4. Harakat-holat ifodalovchi so'zlar: Yozdirmoq dasturxonni yozdirmoq, oyoq chigilini yozdirmoq. Dostonlarda yechmoq ma'nosida uchraydi: Do'xtirlar Hasanaxonding aldinnan chuvoldi **yozdirim** oldi (Xudirgan baxshi, Qirq minglar,14-bet).

Ko'pirmoq - o'ta maqtanchoq, maqtanchoqlik qilmoqdan tashqari to'lib-toshmoq, kuch-quvvatini ko'z-ko'z qilmoq, namoyish qilmoq ma'nolarida: Qirq yigit **ko'pirip** o'tlanip qo'yavirdi (Xudirgan baxshi, Qirq minglar,15-bet). Go'ro'g'li uzoqdan oyoq ostina qaramay, ot minan bostirip, **ko'pirip-toship** kelavirdi (Xo'jyoz baxshi, Xirmondali, 49-bet).

Qirilmoq//qirmoq, - urishmoq, janjallashmoqdan farqli ko'pchilikning birdaniga vafot etishi, yoppasiga o'lishi yoki o'ldirilishi ham tushuniladi: Qirq yigitim **qirilip** qoldi, -dedi (Xudirgan baxshi, Qirq minglar,27-bet).

Mitiq oytir o'qim yomon,
G'animlardi qo'yman omon,
Qirarman jonni begumon -
Piltamni o't olan choqda

(Xudirgan baxshi, Qirq minglar,16-bet).

5. Vaqt bildiruvchi so'zlar: Oqshom//oxshom - quyosh botishi bilan tun boshlanishi o'rtasidagi g'ira-shira yorug' payt, kech, kechqurun. Dostonlarda ham, shevada ham bu so'z faqat kecha, oldingi kun ma'nosida keladi: Go'ro'g'li qirq yigitiminan **oxshom** sho'rda bo'ldi (Xudirgan baxshi, Qirq minglar,14-bet).

6. O'rin-joy ma'noli so'zlar. Ich(i) - ichki bo'shliq, oshqozon, qorin, yurak, dil, qalbdan tashqari ora(si), o'rta(si) ma'nolari keladi: Bu besh otlining **ichinda** biravi "Xabaringdi ber, ne ko'rdansan?"- dedi (Xudirgan baxshi, Qirq minglar,1-bet).

Sirt(i) - narsalarning tashqi tomoni, tashqi yuzi, tizma tog' cho'qqilari bilan birga ust, yuqori, yuza qismi va g'oyibona, izidan kabi ma'nolarni ham ifodalash uchun xizmat qiladi: 1) ust, yuqori, yuza qismi: Go'ro'g'li bir kiyikdi Dog'istannan otip op otting **sirtina** bo'ktarip yurib idi (Xudirgan baxshi, Qirq minglar, 3-bet). 2) Izidan, orqavorotdan: Poshsho **sirtinnan** ot-ovozasini eshitar idi. (Xo'jyoz baxshi, Xirmondali, 56-bet).

O'ng(i) - gavdaning yurak o'rnashgan tomoniga qarama-qarshi joylashgan, amalda, haqiqatda sodir bo'ladigan voqea yoki hodisa, bor narsa, haqiqat, real holat, narsaning odatda ko'rinib turadigan tomoni, sirti, biror ish-harakat qilish uchun qulay fursat, sharoit ma'nolaridan farqli oldingi tomon, ro'para ma'nolarida ham ishlatiladi: Avazxonni ham **o'nginda** qo'ydi (Xudirgan baxshi, Qirq minglar, 7-bet). Kampir ot ustinnan kelip saksan ming nooz, to'xson ming jilva, ikki g'amzaminan Ko'ro'g'lining **o'nginan** kelip ta'zim beravirdi. (Xo'jyoz baxshi, Xirmondali, 5-bet). Go'ro'g'li **o'ngindagi** kampirdan so'radi: "San arvohmisan, odam uli odammisan? Ne ko'rdansan?" (Xo'jyoz baxshi, Xirmondali, 5-bet).

Ko'rinib turibdiki, dostonlar tilining o'zbek adabiy tili bilan o'xshash tomonlari bo'lgani holda,

o'ziga xos alohida xususiyatlari ham mavjud. Shu sababli, ko'p tomlik o'zbek tilining izohli lug'ati yoki o'zbek xalq shevalari lugatlarini tuzish ishida asosiy manba adabiy til materiallari bo'lsa ham, o'rni bilan so'zlarning turli ma'no xususiyatlarini izohlashda folklor materiallaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudirgan baxshi, "Qirq minglar", qo'lyozma, O'zRFA folklor arxivi.
2. Xo'jyoz baxshi, "Xirmondali", qo'lyozma, O'zRFA folklor arxivi.
3. Abdullaev F.A. Xorazm shevalari. -Toshkent: Fan, 1961. -346 b.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 t. - Moskva: Rus tili, 1981. -715 b.
5. Abdurahmonov X. O'zbek xalq og'zaki ijodi asarlarining sintaktik xususiyatlari bo'yicha kuzatishlar. -Toshkent: Fan,1971. -184 b.